

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Islomova Nodira Toshpölat qizi
Pedagogika va psixologiya kafedrasida pedagogika yo'nalishi
1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18358106>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim talabalarida mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni, tamoyillari va oliy ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, mustaqil ta'lim kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uni shakllantirish omillari hamda davlat ta'lim siyosatida mazkur masalaning o'rni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosida yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari talabalarning shaxsiy faolligi, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil ta'lim, kompetensiya, oliy ta'lim, pedagogik imkoniyat, talaba shaxsi.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический анализ педагогических возможностей личностно-ориентированного обучения в развитии компетенции самостоятельного обучения у студентов высших учебных заведений. Раскрывается сущность, принципы и значение личностно-ориентированного обучения в системе высшего образования. Определены структурные компоненты компетенции самостоятельного обучения, факторы её формирования, а также роль данной проблемы в государственной образовательной политике на основе указов и постановлений Президента Республики Узбекистан. Результаты исследования свидетельствуют о том, что личностно-ориентированное обучение обладает значительным педагогическим потенциалом в повышении учебной активности студентов и эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: личностно-ориентированное обучение, самостоятельное обучение, компетенция, высшее образование, педагогические возможности.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical possibilities of student-centered education in developing independent learning competence among higher education students. The essence, principles, and significance of student-centered learning in higher education are revealed. The structural components of independent learning competence, factors influencing its development, and its role in state educational policy are analyzed based on the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan. The research findings indicate that student-centered education has substantial pedagogical potential in enhancing students' personal activity, self-development, and the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: student-centered education, independent learning, competence, higher education, pedagogical potential.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – mustaqil fikrlay oladigan, o'z bilimni doimiy ravishda

yangilab borishga qodir, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayonda talabalar shaxsini rivojlantirish, ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ta'lim sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu ta'lim jarayonida talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuvda talaba ta'lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuini ifodalaydi. U quyidagi komponentlardan iborat:

- motivatsion komponent (bilim olishga ichki ehtiyoj);
- kognitiv komponent (bilimlarni mustaqil egallash);
- faoliyat komponenti (mustaqil ishlash ko'nikmalari);
- reflektiv komponent (o'z faoliyatini tahlil qilish).

Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta'limda talabalarining mustaqil ta'lim ulushini oshirish zarurligi belgilab berilgan bo'lib, bu mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik imkoniyatlari shundan iboratki:

o'z-o'zini boshqarish;

mustaqil qaror qabul qilish;

tanqidiy va ijodiy fikrlash;

o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu ta'lim jarayonining keng qamrovli kontsepsiyasi bo'lib, u individual o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogik va didaktik munosabatga asoslanadi. Bunda darslar tizimli ravishda o'quvchilarga ichki farqlashlar orqali moslashtirib boriladi, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab darslarni loyihalash, tarkibni individual tanlash, o'rganish tezligi va topshiriq darajasiga asoslanadi. Albatta o'qituvchilarda o'quv dasturlari va turli xil sinflar doirasida individuallashtirishni qanday amalga oshirish yoki olib borish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. O'quvchilar bir xil emas, ya'ni ular individual farqlarni ko'rsatadi. Didaktika sinfdagi turli xillik muammosini ichki farqlash orqali bartaraf etishni taklif qiladi. Ichki farqlash o'qituvchining alohida o'quvchilarga ko'proq e'tibor qaratishini bildiradi. Har bir bolaning rivojlanish darajasini, kognitiv va boshqa qobiliyatlarini, iste'dodlarini, bilimlarini va maxsus ehtiyojlarini baholash uchun diqqat bilan kuzatib borish kerak. Frontal o'qitish tobora ko'proq juftlik va guruh ishlari bilan almashtirilmoqda. Har bir bolaga loyiha ishi, ochiq darslar yoki stansiyalarni o'rganish doirasida ko'proq erkinlik beriladi, shunda ular o'quv mazmunida o'z so'zini aytishi yoki o'z ta'limini mustaqil ravishda rejalashtirishi va amalga oshirishi mumkin. O'qituvchi ko'proq kuzatuvchi va yordam beruvchi rolini o'ynaydi. Individual bolaga ishlash doirasida o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyati beriladi: u o'zini

qiziqtirgan mavzular, materiallar va mashg'ulotlar bilan ko'p yoki kamroq mustaqil ravishda shug'ullanishi mumkin. Undan tashqari bolada kichik guruhlarda ishlash doirasida birgalikda konstruktiv ta'lim olish imkoniyati ham bo'ladi: Birgalikda ishlash yoki bir-biri bilan suhbatda bolalar mustaqil ravishda bilimlarni rivojlantiradilar, bir-biridan o'rganadilar va shaxslararo munosabatlarni kengaytiradilar. Ta'lim jarayonlarini individuallashtirish, kerak bo'lsa, alohida bolalarni intensiv qo'llab-quvvatlashga ham imkon beradi. Masalan, o'zlashtirishi past bo'lgan bolalarning til ko'nikmalarini maqsadli ravishda yaxshilash mumkin. Bu yerda sinfda o'quvchilar qanchalik kam bo'lsa, ta'lim jarayonlarini individuallashtirish osonroq ekanligi ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim oliy ta'lim talabalarida mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Mazkur yondashuv talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va ta'lim faoliyatini ongli tashkil etishga zamin yaratadi. Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni oliy ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni to'g'ri tashkil etish ta'lim jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatiga ko'ra ta'lim berishga yondashsa auditoriyada fanni yaxshi va mukammal o'rganuvchi o'quvchi-talabalar soni yanada oshadi, bu esa shak-shubhasiz ta'lim jarayonining rivojlanishiga, o'quv dargohlarida iste'dodlar sonining ko'payishiga, mamlakatda salohiyatli, bilimli, ma'lum bir kasb egasi bo'lgan fuqarolar kesimini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5847-son Farmon. "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida". – Toshkent, 2019.
3. Сериков В.В. Личностно-ориентированное образование. – Москва: Логос, 1999. – 256 с. (45-52-бетлар).
4. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Charles Merrill Publishing Company, 1969. – 312 p. (pp. 150-165).
5. Knowles M. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Cambridge Books, 1975. – 135 p. (pp. 18-30).
6. Reich, K.: Konstruktivistische Didaktik. Lehr- und Studienbuch mit Methodenpool. 4.Auflage. Weinheim: Beltz Verlag. 2008.
7. Trense, S.: Gelungene Begründungen der lernerorientierten Qualitätsentwicklung in Selbstreporten der Weiterbildungsorganisationen. Hannover: Expressum Verlag. 2009, S. 52 – 68.